

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti huzurida texnika fanlari bo'yicha ilmiy darajani beruvchi ilmiy kengash o'z faoliyatini boshladi.

O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining 2022 yil 1 fevraldagi 29-sonli qaroriga asosan Toshkent shahridagi Turin Politexnika universitetida texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash tashkil etildi.

Ilmiy kengashda quyidagi ixtisosliklar bo'yicha dissertatsiyalar himoya qilinadi:

05.08.06 – «G'ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish»;

05.01.08 – «Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarish»;

05.09.01 – «Qurilish konstruktsiyalari, bino va inshootlar»

Ushbu qarorga ko'ra, Turin Politexnika universiteti huzuridagi ilmiy kengashning 17 kishidan iborat tarkibi tasdiqlandi. Kengash raisi etib texnika fanlari doktori, universitetning rektori Inoyatxodjaev Jamshid Shuxratullaevich tayinlandi.

Mazkur ilmiy kengash tarkibi eng yosh olimlardan tashkil topgan bo'lib, 9 nafari texnika fanlari doktori, 8 nafari PhD. Kengash a'zolarining ko'pchiligi xorijda ilmiy ishini himoya

qilgan, shuningdek, kengash tarkibiga Italiyalik professor ham jalb qilingan.